

# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 y. yanvar–sentyabr holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat olib borayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilga nisbatan 3046 taga o'sdi.
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi o'tgan yilga nisbatan 0,02 % f.p ga kamaygan.
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni 2792 taga oshgan.

2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyatda 3445 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 562 taga ko'p.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 33,3 % ga kamaygan hamda ularning soni 653 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.


Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2809 (9,7 %) taga o'sgan hamda ularning umumiy soni 28812 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Farg'ona (18,6 %), Qo'qon (13,7%), Marg'ilon (9,8%) shaharlarida, Uchko'prik (5,2 %) va Dang'ara (4,8 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda

01.10.2018 y.



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 oktyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Farg'ona viloyati	28812	100,0	28376	98,5
Far'gona sh.	5363	18,6	5262	18,5
Qo'qon sh.	3938	13,7	3884	13,7
Quvasoy sh.	846	2,9	834	2,9
Marg'ilon sh.	2822	9,8	2810	9,9
tumanlar				
Oltiariq	1229	4,3	1222	4,3
Qo'shtepa	939	3,3	926	3,3
Bog'dod	969	3,4	966	3,4
Buvayda	1245	4,3	1226	4,3
Beshariq	907	3,1	894	3,2
Quva	1196	4,2	1164	4,1
Uchko'prik	1494	5,2	1450	5,1
Rishton	880	3,1	850	3,0
So'x	703	2,4	703	2,5
Toshloq	1268	4,4	1249	4,4
O'zbekiston	1293	4,5	1277	4,5
Farg'ona	1011	3,5	974	3,4
Dang'ara	1375	4,8	1360	4,8
Furqat	677	2,3	670	2,4
Yozyovon	657	2,3	655	2,3




**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi, % da**


Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 98,5 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 1,5 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0.02 % ga kamaygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 5,3 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 21,2 % sanoatda, 8,2 % qurilishda, 21,4 % savdoda, 4,0 % tashish va saqlash, 4,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,4 % axborot va aloqa, 2,4 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 29,6 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning




### Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda




2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 3445 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 19,5 % ga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Farg'ona (586 ta), Qo'qon (432 ta), Marg'ilon (287 ta) shaharlarida, Oltiariq (207 ta), Uchko'prik (189 ta) va Buvayda (170 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (75 ta) hamda Qo'shtepa (83 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (909 ta), savdo-da (680 ta), qurilishda (348 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (205 ta), yashash va ovqatlanish xizmatlarida (165 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (65ta), tashish va saqlashda (132 ta) va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (94 ta) tashkil etilgan.

### Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi axborot va aloqada (-0,6 f.p.dan), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,1 f.p.), savdoda (-0,2 f.p.), kamayganligi, buning natijasida tashish va saqlashda (+0,0 f.p.), qurilishda (+0,1 f.p.), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (+0,1 f.p) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.dan), sanoatda (+0,6 f.p.) ulushining o'sishiga olib keldi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktida**

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.10.2017 y.	01.10.2018 y.	farqi (+-)
Qishloq va o'rmon xo'jaligi	5,4	5,3	-0,1
Sanoat	20,6	21,2	0,6
Qurilish	8,1	8,2	0,1
Savdo	21,6	21,4	-0,2
Tashish va saqlash	4,0	4,0	0,0
Yashash va ovqatlanish	4,4	4,5	0,1
Axborot va aloqa	4,1	3,4	-0,6
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ximoya	2,3	2,4	0,1
Boshqa turlar	29,6	29,6	0,0

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 oktyabr holatiga 22854 tadan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar– 8399 ta, oilaviy korxonalar – 2663 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 11264 ta, aksiyadorlik jamiyatlari – 51 tani va boshqalar 477 tani tashkil etadi.


**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda.**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni**

2018 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 256 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 68 taga yoki 26,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 190 tasi qo'shma korxonalar, 66 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda**




### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Farg'ona 95 ta (37,1 %), Qo'qon 37 ta (14,4 %), Marg'ilon 17 ta (6,6) shaharlarida, Farg'ona tumanida 14 ta (5,5 %) va Quvasoy shahar 16 ta (6,2 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar So'x tumani 2 ta (0,8 %), Furqat tumani 3 ta (1,2 %), Qo'shtepa tumani 3 ta (1,2 %), Bag'dod tumani 4 ta (1,6 %), Buvayda tumani 4 ta (1,6 %) va Yozyovon tumani 3 ta (1,2 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim


### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda





Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 oktyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 173 ta (67,6 %), savdoda 32 ta (12,5 %), boshqa turlarida esa 13 ta (5,1 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa axborot va aloqada 2 ta (0,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 6 ta (2,3 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 5 ta (2,0 %), qurilishda 7 ta (2,7 %), tashish va saqlashda 6 ta (2,3 %) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 12 ta (4,7 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri kelarkan. Shuningdek, eng kam ulushi esa axborot va aloqa hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-sentyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 52 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 19 taga ko'paygan yoki 57,6 foizga oshgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 29 ta, savdoda 14 ta, sog'liqni saqlashda 1 ta va qurilishda 1 ta, boshqa korxonalarda 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.




**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 oktyabr holatiga viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 22,9 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 oktyabr holatiga qaraganda 12,6 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 4342 tasi (19 %) Farg'ona, 3356 tasi (14,7 %) Qo'qon, 2480 tasi (10,8 %) Marg'ilon shaharlariga, 1240 tasi (5,4 %) Uchko'priq va 1143 tasi (5,0 %) Dang'ara tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 22,9 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6138 tasi (26,9%) – savdoda, 6048 tasi (26,5 %) - sanoatda, 2350 tasi (10,3 %) - qurilishda, 1473 tasi (6,4 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1297 tasi (5,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 1139 tasi (5,0 %) - tashish va saqlashda, 976 tasi (4,3 %) - axborot va aloqa sohasida, 493 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2940 tasi (12,9 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-sentyabr holatiga 2930 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 9,0 foizga ko'paygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona (531 ta), Qo'qon (379 ta), Marg'ilon (263 ta) shaharlarida, Olti-ariq (179 ta) va Buvayda (162 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam So'x (59 ta), Beshariq (92 ta) hamda Qo'shtepa (64 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (908 ta), savdo- (680 ta), boshqa turdagi xizmatlar (337 ta), qurilishda (347 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (204 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (164 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (65 ta), tashish va saqlashda (132 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (93 ta) tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 avgust holatiga 2663 tani tashkil etib, ulardan 2634 tasi yoki 98,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 26,3%ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda





Faoliyat olib borayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 48,6 % yoki 1294 tasi sanoat, 13,3 % yoki 354 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 13,4 % yoki 357 tasi savdo, 9,7 % yoki 257 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 2,4 % yoki 64 tasi tashish va saqlash, 1,2 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 1,3 % yoki 35 tasi qurilish, 0,8 % yoki 22 tasi sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish hamda 9,7 % yoki 257 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

### Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: E.Ro'ziboyev

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat  
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida  
tayyorlangan

(0371) 230-87-36